

Test javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
d	c	e	a	b	c	d	d	a	a
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
d	e	b	a	a	d	c	a	d	c
21									
c									

Masalalar yechimi

1-masala

Uzoq muddatli oraliqda raqobatlashayotgan firmalarning mahsuloti narxi **$P=\min ATC$** bo'lishi kerak. O'rtacha harajat $ATC=TC/Q=Q^2-36Q+384=(Q-18)^2+60$ bu funksiya minimum qiymatga $Q=18$ bo'lganda erishadi va minimum qiymati 60 ga teng bo'ladi.

Tarmoqning taklif hajmi $Q_s=130 \times 18=2340$.

Javob: bozor narxi 60 birlik, tarmoq taklifi esa 2 mln 340 ming donani tashkil etadi.

2-masala

Uzoq muddatli oraliqda narx **$P=\min ATC$** bo'lishi kerak. O'rtacha harajatlar minimumini topish uchun uning funksiyasidan hosila olib 0 ga tenglashtiramiz:

$ATC'(Q)=Q-10=0$ bundan $Q=10$ bo'ladi $\min ATC=AC(10)=16$, demak $P=16$.
 $Q_s=Q_D=1800-50P=1800-800=1000$ tarmoqning umumiy taklif hajmi har bir firma 10 birlik mahsulot ishlab chiqarsa $1000/10=100$ ta firma tarmoqda faoliyat ko'rsatar ekan.

Javob: 100 ta firma.